

## QOMATNI SHAKLLANTIRUVCHI UMURTQA POG’ONASI BILAN BOG’LIQ KASALLIKLAR

<sup>1</sup>Tojidinova O. SH., <sup>2</sup>Mirzabekova F. N.

<sup>1</sup>Andijon davlat universiteti talaba, <sup>2</sup>Andijon davlat universiteti Odam va hayvon fiziologiyasi va XFY kafedra katta o’qituvchisi

**Anontatsiya:** Odam organizmi hamma vaqt tashqi muhitning turli ta’sirlari ostida bo’ladi. Organizm hayot faoliyati jarayonida tashqi muhit ta’sirlariga moslashadi. Ularning ko’pchiligi organizmning normal reaksiyalari uchun zarur bo’lib qoladi. Tirik organizm g’ayritabiiy ta’surotlarga qarshilik ko’rsata olish qobiliyatiga ega. Organizmning himoya moshlanishlari hamma vaqt ham o’z vazifasini uddalay olmaydi va ta’surotlarning zararli ta’sirini yenga olmay qoladi. Bunday holatlarda organizmning funksiyalari izdan chiqib, morfologik sturukturaning buzulishi yuzaga keladi va odam kasallanadi. Ushbu maqola orqali biz sizlarga qaddi-qomatni tuzulishida ishtirok etadigan umurtqa pog’onasi bilan bog’liq kasalliklar va ularning kelib chiqish sabablari haqida qisqacha to’xtalib o’tamiz.[1]

**Kalit so’zlar:** norma, umurtqa pog’onasi, skoiloz, kifoz, lordoz

**Аннотасия:** Организм человека всегда находится под различными воедействиями внешней среды. Организм в течение жизни адаптируется к внешней среде. Большинство из них необходимы для нормальных реакций организма. Живой организм обладает способностью противостоять противоестественным воздействиям. Защитные механизмы организма не всегда способны выполнить свою задачу и не могут преодолеть вредные последствия воздействий. В таких случаях функции организма выходят изпод контроля. Происходит нарушение морфологической структуры и человек заболевает. В этой статье мы дадим вам краткий обзор заболеваний позвоночника и их причин.

**Ключевые слова:** норма, позвоночник, сколиоз, кифоз, лордоз

**Annotation:** The human body is always under various influences of the external environment. The body adapts to the external environment during life. Most of them are necessary for the normal reactions of the body. A living organism has the ability to resist unnatural influences. The body’s protective mechanisms are not always able to fulfill their task and cannot overcome the harmful effects of influences. In such cases, the functions of the body are out of control. Disruption of the morphological structure occurs and the person becomes ill. Through this article, we will give you a brief overview of spine related diseases and their causes

**Key words:** norm, spine, scoliosis, kyphosis, lordosis

Qaddi-qomat bu har bir odam tanasini o’zi odatlangan holda erkin tutushi hisoblanib, qomatni shakllantiruvchi tarkibiy qismlardan biri tanamizning tayanchi umurtqa pog’onasi hisoblanadi. Norma bu – sog’lom odamlarda uchraydigan holat bo’lib, a’zolar o’ziga yuklatilgan vazifani to’liq bajarilishi tushuniladi. Patalogiya – holatida a’zolar taraqqiyoti bilan bog’liq ba’zi holatlar uning bajaradigan vazifasiga salbiy ta’sir etadi. Biz esa sizlarga umurtqa pog’onasing ayni patologiyasi haqida ma’lumotlar keltiramiz. Umurtqa pog’onasi 33-34 ta umurtqalarning o’zaro qo’shilishidan hosil bo’lib, tabiiy norma holatida uning qismlari bo’lmish bel, ko’krak, bel, dumg’aza, dum qismlarida egriliklar bo’ladi. Bo’yin va bel qismlari norma holatida biroz oldinga, ko’krak va dumg’aza qismlari esa biroz oraga egilgan bo’ladi.

Bu tabiiy egilishlar bir yoshgacha bo‘lgan bolalarda bo‘lmaydi. Bolaning tik turishi, yurishi, boshini tik tutishi natijasida asta-sekin bu egilishlar hosil bo‘ladi. Umurtqa pog‘onasi patalogiya holatida qaddi -qomatni buzuvchi bo‘lgan noto‘g‘ri shakllarni keltirib chiqaradi va bular: egilgan, lordoz, kifoz, kekkaygan, skoliotik va ko‘plab turlarni misol qilishimiz mumkin. Umurtqa pog‘onasining normal holatdan o‘zgarishi faqatgina qomatning buzulishiga emas, balki ichki a‘zolarining funksiyasiga ham o‘z ta‘sirini o‘tkazadi. Bunday odamlar jismoniy mehnat qilganida, jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanganida nafasi qisadi, yurak urishi tezlashadi, tez charchaydi va bu kabi misollar juda ko‘p. Umurtqa pog‘onasining qiyshayishini 3 xil turdagisi o‘zaro farqlanadi: skoiloz – yonga, lordoz – oldinga, kifoz – orqaga. Katta yoshdagi kishilarning umurtqa pog‘onasida old va orqa tomonga qaragan kichikroq bukilma bo‘ladi. Bu bukilma yoshlikdan asta-sekin ayniqsa bola tik turishiga va yurishga o‘rgana boshlaganida vujudga keladi. Bu kasallik bo‘lmay, balki fiziologik holat hisoblanadi. Umurtqa pog‘onasi kasallanganida esa umurtqa pog‘onasining fiziologik holati o‘zgarib, old va orqa tomonga qarab qiyshayishi kuzatiladi. Quyida umurtqa pog‘onasi patalogik holatlariga to‘xtalamiz.[2]

**Skoiloz** – umurtqa pog‘onasining yon tomonga qiyshayishi. Keltirib chiqarish jihatdan 2 turi farqlanadi. Birinchi turi tug‘ma ya‘ni umurtqalarning noto‘g‘ri rivojlanishi tufayli bo‘lishi mumkin. Ikkinchi turi esa ko‘proq 5-15 yoshli bolalarda, ayniqsa o‘quvchilar orasida ko‘p uchraydi sababi o‘quv mashg‘ulotlari vaqtida bolalar partada gavdasini noto‘g‘ri tutib o‘tirishi natijasida umurtqa pog‘onasiga va muskullariga og‘irlik bir xil tushmaydi. Oqibatda muskullar bo‘shashib qoladi, umurtqa pog‘onasi boylamlari va shaklining o‘zgarishi turg‘un skoilozga sabab bo‘ladi. Bundan tashqari bolalarda D vitamini yetishmasligi tufayli kelib chiquvchi raxit kasalligi ham bolalarni skoilozga uchrashiga sabab bo‘ladi. Katta yoshli odamlarda esa jismoniy mehnat vaqtida doimo bir qo‘l bilan og‘ir yuk ko‘tarishi ham skoilozga olib kelishi mumkin. Skoilozni keltirib chiqaruvchi sabablardan umurtqaning sinishi yoki bemorning sil kasalligi oqibatida umurtqaning yemirilishi natijasida kelib chiqishi mumkin. Kishining bir oyog‘i kalta bo‘lib, o‘sha tomonga engashib qadam tashlashi ham funksional sikoilozga olib keladi. Skoiloz kasalligini oldini olish uchun bolalarni partada va stol atrofida to‘g‘ri o‘tirishga o‘rgatish, vrach buyurgan davo badan tarbiyasi mashqlarini qunt bilan bajarish, massaj qilish, serharakat o‘yinlar, ochiq havoda sayr qilish, katta yoshli odamlarda esa mehnat bilan dam olishni to‘g‘ri almashtirib turishi, ish vaqtida joyidan qo‘zg‘alib tanaffus qilib turishi va gimnastika bilan shug‘ullani masadga muvofiq hisoblanadi. [3]

**Kifoz** – umurtqa pog‘onasining orqaga qiyshayishi. Kifozni yoysimon holatda bo‘lishi mumkin. Bunda umurtqa pog‘onasining u yoki bu bo‘lagi orqa tomonga qiyshaygan bo‘ladi va umurtqa pog‘onasining orqa tomonga turtib chiqishi kuzatiladi. Yoysimon kifoz umurtqa pog‘onasining ko‘krak bo‘limida ko‘proq uchraydi. Buning sabablari tana orqa muskullari tonusining keskin kamayishi, yoshlikda raxit bilan kasallanish, gavgdani uzoq vaqt egib ishlash ( stanokda yoki yozuv stolida) yoysimon kifozga sabab bo‘ladi.

**Lordoz** – umurtqa pog‘onasini oldi tomonga qiyshayishi. Lordozda umurtqa pog‘onasi ichkariga qiyshayadi. Bunga ko‘pincha chanoq suyagining son suyagi bilan tutashgan bo‘g‘imining tug‘ma chiqishi sabab bo‘ladi. Bel lordozi qoringa yog‘ yig‘ilishidan ham paydo bo‘ladi. Lordozda umurtqalar deformatsiyalanadi (bo‘shashadi) va og‘riydi. Umurtqa pog‘onasi shikastlangan qismining harakatlanishi qiynlashadi. Lordozni davolashda uning kelib chiqish sababi aniqlanadi va shifokor tomonidan gimnastika va massaj buyuriladi.[4]

Yuqorida aytib o’tilgan skolioz, kifoz, lordoz kabi kasalliklar umurtqa pog’onasining tuzulishi bilan bog’liq bo’lib bundan tashqari umurtqa pog’onasining ichki tuzulishi bilan undagi nervlar, qon tomirlar va muskullari bilan bog’liq kasalliklar juda ko’p hisoblanadi. Organizmimizda kelib chiquvchi kasalliklar va ularni oldini olish uchun ko’nikmalar mavjud bular: sport bilan shug’ullanish, sog’lom va tartib asosida ovqatlanish, stress holatlaridan uzoqroq turish, kun tartibiga rioya qilish nafaqat umurtqa pog’onasi bilan bog’liq kasalliklar balki boshqa kasalliklarni ham yuzaga chiqishiga yo’l qo’ymaydi. Sog’lom turmush tarziga amal qilish kishini ruhan va jismonan baxtli qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.A.G’. Ahmedov, G.X. Ziyamutdinova – “Anatomiya, Fiziologiya va Patologiya”- Toshkent “Iqtisod- Moliya”- 2019 [1]
2. 2.Mavlonov O. “Odam va uning salomatligi” – Toshkent 2019. [2]
- 3.<https://fanvatalim.uz> [3]
4. <https://avitsenna.uz> [4]